AMALIY MASHG‘ULOTLARDA “KEYS-STADI” USULIDAN FOYDALANISHNING O‘QUVCHILARGA TA’SIRI

Beshimova Zarnigor Zokirovna - yetakchi o`qituvchi
Xolova Salomat Toirovna - katta o`qituvchi
EMU Texnikum (Toshkent, O‘zbekiston)

Annotatsiya. Ushbu tezisda xirurgiyada hamshiralik ishi fanining amaliy mashg‘ulotlarida “Keys-stadi” (Case study) interfaol metodidan foydalanishning o‘quvchilarga ta’siri, ularning klinik tafakkuri, tahliliy fikrlash va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishdagi o‘rni alohida ko`rsatib beradi.

Kalit so‘zlar: Interfaol metod, keys-stadi, klinik tafakkur, tibbiy ta’lim.

Mavzuning dolzarbligi: Xirurgiyada hamshiralik ishi fanining amaliy mashg‘ulotlarida “Keys-stadi” (Case study) interfaol metodidan foydalanishning o‘quvchilarga ta’siri, ularning klinik tafakkuri, tahliliy fikrlash va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishdagi o‘rni alohida ko`rsatib beradi. Zamonaviy ta’limda o‘quvchini passiv bilim oluvchidan faol bilim yaratuvchiga aylantirishga yo‘naltirilgan metodlar muhim o‘rin tutadi. Shulardan biri — “Keys-stadi” (holatni o‘rganish) usuli bo‘lib, u real hayotiy yoki klinik vaziyatni tahlil qilish orqali nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lay oladigan kadr qilib yetishtirib beradi. Maqsad: O‘quvchilarda kasbiy mas’uliyat, tibbiy mantiq va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda, o`z fikrini bayon qilishda muhim o`rin egallaydi.

Material va metodlar: “Keys-stadi” metodi — bu aniq klinik vaziyatni o‘rganish, tahlil qilish va muammoni hal etish bo‘yicha o‘quvchilarning fikrlarini shakllantirish jarayonlaridan biridir.

Uning asosiy bosqichlari:

1. O‘qituvchi tomonidan klinik holat tanlanadi.
2. O‘quvchilarga bemorning holati, tashxis, kuzatilgan belgilar va laborator natijalar tanishtiriladi.
3. Guruhlar muammoni tahlil qiladi, ehtimoliy sabablarni aniqlaydi, amaliy yechimlarni ishlab chiqadi.
4. Har bir guruh o‘z yechimini himoya qiladi, natijalar taqqoslanadi va umumiy xulosa chiqariladi.

Ushbu metod orqali o‘quvchi real klinik muammolarni tahlil qilish, zarur amaliy qarorlarni tanlash, bemor bilan muloqot qilish madaniyatini o‘rganadilar. Dars jarayoni jonlanadi, o‘quvchilar o‘z fikrini asoslab himoya qilishni o‘rganadilar.

Amaliy kuzatuvlarga ko‘ra, “Keys-stadi” usuli qo‘llanilgan mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning ishtirok faolligi 70–80% gacha oshadi, o‘zlashtirish darajasi esa an’anaviy ma’ruza shakliga nisbatan 1,5 barobar yuqori bo‘ladi (O. M. Norova, 2022; T. A. Karimova, 2023).

Xulosa:

“Keys-stadi” interfaol metodi amaliy mashg‘ulotlarda o‘quvchilarni faol fikrlashga, mustaqil qaror qabul qilishga va o‘z fikrini asoslab berishga o‘rgatadi, o‘quvchilarning klinik tafakkurini shakllantirib, kelajakdagi amaliy faoliyatga tayyorlaydi. Shuningdek, o‘qituvchi uchun darsni tahliliy va natijador tarzda tashkil etish imkonini beradi.